

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР
АКАДЕМИЯСИ МИНТАҚАВИЙ БЎЛИМИ
ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ**

ХОРАЗМ МАЪМУН АКАДЕМИЯСИ АХБОРОТНОМАСИ

Ахборотнома ОАК Раёсатининг 2016-йил 29-декабрдаги 223/4-сон
қарори билан биология, қишлоқ хўжалиги, тарих, иқтисодиёт,
филология ва архитектура фанлари бўйича докторлик
диссертациялари асосий илмий натижаларини чоп этиш тавсия
этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган

2020-4/2

**Вестник Хорезмской академии Маъмуна
Издается с 2006 года**

Хива-2020

МУНДАРИЖА

ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

Yovqochev Sh.Sh. Xalqaro moliya institatlari va O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy hamkorligi doirasidagi muammolar	5
Azamatova G.B. Migrantlar pul ўtkazmalarinining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqkiёtiiga taъsiри	11
Bekjanov D.Y. Turizm soҳasini rivojlantiriшning germания tажribasi	16
Burhanov A.X., Abdovoхидов А.А., Мухаметов А.Б. Эркин иқтисодий зоналарнинг тадбиркорлик субъектлари экспортида ахборот- коммуникация технологияларидан фойдаланишдаги тизимли муаммолар таҳлили	23
Gulamov A.A. Model oqenki effektivnosti воспроизведения основного капитала железнодорожного транспорта	29

ТАРИХ ФАНЛАРИ

Egamberganova M.J. Abulg'oz Baxodirxonning "Shajarayi tarokima" asarida turkmanlar etnogenezi masalasi	36
Madalimov T.A. Qadimgi Hindistonda mantiq ilmining shakllanishi	37
Matyaqubov T.S. Xorazmning ilk o'rta asrlar davri davlatchiligi tarixining arxeologik va tarixshunoslik nuqtai-nazardan o'rganilishi	39
Nurmamatov J.Q. Xorazm qishloq va shaharlari tarixidan (Milodiy III-IX asrlar)	42
Nurmamatov J.Q. Xorazmshoh-Anushteginiylar davri markazlashgan davlatning qaror topishida qo'shining o'rni	44
Abdullaev Ж.Р., Нуруллаева Ш.К. Xorazm воҳаси бронза даври аҳолиси турар жойлари тарихининг ҳорижий манбаларда акс этиши	46
Boltayev B.B. Taъlim va tarbia жараённида музейлар фаолиятининг аҳамияти	48
Ёдгоров З.Ш. Баркамол авлодни тарбиялашда жисмоний тарбия ва спортнинг аҳамияти	50
Masharipova Г.К., Isroilov B.Э., Diёrova Г.Ш. Ilmdan boшқа нажот йўқ – "Жаҳолатга қарши маърифат" билан курашиш зарурati	54
Nurullaeva N.K. Дни культуры и искусства- фактор обеспечения межнационального согласия	58
Tojiboev M.T. Taъlim-tarbia тизимининг ривожланиш босқичларида миллий ва умумбашарий қадриятлар тарихининг омиллари	59
Xolliев A.G. Boж тарифлари ва XIX asrda Rossiyaniнг ташки савдо сиёсати	62

ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

Ahmedova N.Sh. Xorazm shevasidagi umumturkiy so'zlar tahlili	68
Ermetova J., Karimova M. Ingliz va o'zbek tillari sportg oid terminlarning leksikografik o'rganilishi	71
Jumaniyazov A., Jumaniyazova D.A. Tillar qarindoshligi va umumiylilik xususiyatlarini o'rganishda sanskritning o'rni	74
Kim S.T., Kabulova G.U., Kuryazova Kh. Using teaching aids in teaching foreign languages	78
Shavkieva D.Sh., Narimova G.A. Innovations in learning and teaching foreign languages	85
алимова М. X, Таджиева Н.К. Ўзбек ва инглиз тилларидаги флоронимларнинг	88

uni o'zaro uch bo'lakka taqsimlab oldilar. Kichik o'g'illari Ko'k, Tog' va Tengizlar uchta oltin kamon o'qlarini topib keldilar va har biriga bittadan o'q tegdi. O'g'uzxon shundan keyin o'g'illarini chorlab, katta o'g'illariga: -“siz uchalangiz oltin yoyni olib kelib, o'zaro buzib ulashtingiz, bundan keyin sizlarni otingizni, sizlardan bo'lgan o'g'lonlarni ham Buzuq desinlar”, - dedi. Kichkina o'g'illarini va ulardan bo'lgan avlodlarni ham Ucho'qlar deyishni buyurdi. O'g'li Kunxonni esa taxt vorisi etib tayinlaydi [3]. Shundan keyin O'g'uzxon avlodlari hukmronlik qiladi. O'g'uz xalqi ham O'g'uzxonidan kelib chiqqan.

Turkmanlarning etnogenezida mahalliy dah, massagetlar, shuningdek, sarmatlar, alan qabilalari, qisman qadimgi Marg'yona, Parfiya va Xorazm davlatlari aholisi qatnashgan. XI asrga kelib hozirgi Turkmaniston hududini o'g'uzlar bosib oladi va eroniylar bilan qorishgan holda turkman etnosi vujudga keladi [4]. Aynan shu davrda turkmanlarda davlatchilik yuzaga kelgan. XV asrga kelib turkman xalqi shakllangan.

Xorazm zaminida yashovchi turkman millati vakillarining o'ziga xos etnik tarixi mavjud. Abulg'izi Bahodirxonning “Shajarayi tarokima” asari esa turkmanlarning etnik tarixini o'rganishda asosiy manba sanaladi. Mavzuni o'rganish jarayonida asarning o'zbek va rus tillaridagi nusxalaridan foydalandik.

Asarni o'rganish orqali quyidagi savollarga javob olish mumkin:

- Turkmanlar etnogenezi va etnik tarixi;
- Turkman atamasining kelib chiqishi va uning ma'nosi;
- Turkman urug'lari va ularning bir-biri bilan o'zaro munosabatlari yoritib berilgan.

Shunisi e'tiborliki, asar sof turkiy tilda bitilgan va o'z zamonasining boshqa manbalariga qaraganda ancha sodda va tushunarli qilib bayon etilgan. Dunyoda ko'pgina xalqlar boshqa etnik birliklar bilan aralashgan holda shakllangan. S. P. Tolstov aytganidek: “Bugungi kunda O'rta Osiyo xalqlarining hech qaysisi qadimgi etnik guruhlarga bevosita borib taqalmaydi. Aksincha, ularning shakllanishida, yerli xalqlar va tevarak-atrofdan ko'chib kelgan xalqlar har xil darajada o'z ta'sirini o'tkazgan” [5]. Shu qatorda, turkman elati ham shakllanish jarayonida ko'plab tarixiy davrlarni bosib o'tgan va hozirgi kunda to'laqonli millat sifatida Turkmaniston hududida yashab kelmoqda. E'tiborga loyiq jihat shunda-ki, turkman yoshlari o'z “tiyra”, ya'ni urug'larini va o'z milliy marosimlari hamda urf-odatlarini besh qo'ldek biladilar, shuningdek, ularga qat'iy amal qilgan holda yashab kelmoqdalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Абулгозий Баҳодурхон. Шажарайн тарокима. Қ.Махмудов таржимаси.- Тошкент, 1995. -Б.-15.
2. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2001. - Б.-6.
3. Абулгозий Баҳодурхон. Шажарайн тарокима. Қ.Махмудов таржимаси.- Тошкент, 1995. -Б.-10.
4. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2000-2001. - Б.-772.
5. Толстов С.П. Основные проблемы этногенеза народов Средней Азии. СЭ, 1947. № VI-VII. С.304

UDK:141.336(540)

QADIMGI HINDISTONDA MANTIQ ILMINING SHAKLLANISHI

T.A. Madalimov, o'qituvchi, Toshkent viloyati Chirchiq davlat pedagogika instituti, Chirchiq

Annotatsiya. Maqolada Qadimgi hind falsafiy maktablari va ulardagи mantiq ilmining rivojlanishi tahlil qilingan

Kalit so'zlar: mantiq, bilish sezgi, xulosa , analogiya , shubha , taqqoslash

Аннотация. В статье анализируются древнеиндийские философские школы и развитие в них логики.

Ключевые слова: логика, познание, вывод, аналогия, сомнение, сравнение

Abstract. In this article reviews analyzing ancient Indian philosophical schools and the development of logic in them

Keywords: logic, cognition, perception, conclusion, analogy, doubt, comparison

Eramizdan oldingi II ming yillikda Qadimgi Hindistonda sivilizatsiya shakllangan bo'lib, Gang vohasi atrofida yashovchi xalqlar dehqonchilikka o'ta boshlagan. Shu davrdan boshlab hind jamiyatida ham mafkuraviy jarayonlar ham asta sekin o'zgarayotgan edi. Bu o'zgarishlar asosan fanning matematika, mantiq, tibbiyot va astronomiya sohalarida kuzatilgan. Matematikadan farqli ravishda Hindistonda mantiq ilmi shakllangan bo'lib, u dastlab yaxlit tarzda fan sifatida emas, hind falsafasining

tarkibiy qismi sifatida shakllangan. Shuning uchun hind mantig'i barcha falsafiy maktablarda shakllangan. Hindistonda mantiq ilmining rivojlanishi tarixi to'rt davrga bo'linadi:

1. Ilk Budda mantig'i miloddan avvalgi VI-V asrlarni o'z ichiga oladi;
2. Nyaya va Vaysheshika mantig'i –miloddan avvalgi III-II asrlar;
3. Dxarma va Dharmakirti maktabi –milodiy VI-VIII asrlar;
4. To'rtinchı davr VIII-XVII asrlarni o'z ichiga oladi.

Ilk budda mantig'i asosan falsafiy epistemologiyaga bag'ishlangan bo'lib, unda asosan hissiy bilish orqali tafakkur tushuntirilgan. Nyaya va Vaysheshika mantig'i esa hind mantig'ida tub burilish yasagan bo'lib, hind tafakkurining klassik davrga olib chiqdi. Qadimgi hind falsafiy maktablarida to'g'ri bilimga eltuvchi yo'l turlicha ko'rsatilgan. Masalan:

Charvaka lokayata falsafiy maktabida —sezgi(pratyaksha) orqali;

Mimansa-o'g'zaki guvohlik(Shabda) orqali;

Vaysheshika va Buddizm maktablarida –sezgi va xulosa(anumana) orqali;

Sankhya-sezgi, xulosa, og'zaki guvohlik orqali;

Nyaya –sezgi, xulosa, og'zaki guvohlik, taqqoslash orqali;

Prabhakara-sezgi, xulosa, taqqoslash, og'zajki guvohlik, tahmin orqali;

Bhakti va Vedanta-sezgi, xulosa, taqqoslash, og'zajki guvohlik, tahmin, mavjud bo'lmaslik orqali;

Purnyaklar-ehtimollik, sezgi, xulosa, taqqoslash, og'zajki guvohlik, tahmin, mavjud bo'lmaslik orqali bilimlar tasniflangan.

Hind falsafiy maktabining o'ziga xos jihatlari shunda-ki undagi sillogizmlar antik Yunonistondagi klassik mantiqdan farq qiladi. Mimansa maktabida bilish to'g'riliqi og'zaki guvohlik (shabda) orqali amalga oshadi deyilgan. Og'zaki guvohlik - Ishonchli odamning (apta), ya'nii haqiqiy bilimga ega va haqiqat egasining ibratli ko'rsatmasidir. **Mimansaga ko'ra** ishonchli odam quyidagi hislatlarga ega bo'lishi kerak:

-Xurofotlar va tarafkashliklardan xoli;

-Ma'lumot natijalariga qiziqish bo'lmasligi;

-Boshqa hokimiyatlar tomonidan ishonchli deb tan olingan;

Ishonchli odamning fikri muhokama qilinmaydi, faqatgina uni tanlashda yuqoridagi hislatlarga ega bo'lish kerakligi xususida muhokama qilinadi. Lekin tanlovda subyektivlikka yo'l qo'yilmaydi.

Masalan, tamaki kompaniyasiga tamaki sog'liq uchun zararli emasligi to'g'risida "dalillar" keltiradigan "olimlar" ishonchli odamlar emas, chunki ular tamaki kompaniyasi tomonidan moliyalashtiriladi va ularning natijalari isbotlangan mahsulotga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Phabkara falsafiy ta'limotida asosiy e'tibor bilishda ehtimollikka urg'u beriladi. Ehtimollik (sambhava) – bir narsaning mavjudligi uning yo'l doshini ham mavjudligini bildiradi. Masalan „Agar (qora) bulut bo'lmasa yomg'ir yo'q“ degan xulosadan kelib chiqib, „Agar qora bulut bo'lsa yomg'ir bo'ladi“ degan ehtimoliy xulosa chiqariladi. Bhakti va Vedanta maktablarida bilishning o'ziga xosligi yo'qlik (mavjud bo'lmaslik) metodi bilan tushuntiriladi. Mavjud bo'lmaslik- bu ikki qarama-qarshi narsadan bittasining mavjudligi ikkinchisining yo'qligidan dalolat beradi. Bu xuddi formal mantiqning ikkinchi qonuni-Nozidlik qonuni bilan belgilanadi: “bir vaqtning o'zida aytilan ikki qarama qarshi teng fikr bir vaqtning o'zida to'g'ri bo'lishi mumkin emas”. Masalan quyoshning yo'qligi –yulduzlarning mavjudligini bildiradi. Bunda bir-biriga qarama qarshi ikki fikr (quyosh va yulduzlarning) mavjudligi bir vaqtda to'gri emas. Qadimgi Hindistonda mantiqning eng optimallashgan ko'rinishi Nyaya falsafiy maktabida beriladi. Nyaya tizimi ta'limotlari haqiqatni o'rganish va bilish uchun mantiqiy asos yaratishga qaratilgan. Nyaya tanqidiy surishtiruv bilan shug'ullanadi. U barcha e'tiqodlarni o'rganadi – an'anaviy va zamонавиy va barcha xurofotlarga asoslangan va mantiqsiz e'tiqodlarga qarshi keskin kurashadi. Haqiqiy tushunchani egallashga qaratilgan konstruktiv fikrlash qayerda bo'lsa ham, mantiqqa ehtiyoj bor. Haqiqatni izlashga bo'lgan bu istak inson tabiatida tug'iladi va mantiq bizga konstruktiv ratsional fikrlashni amalga oshirishga imkon beradi. Mantiqning maqsadi o'rganish, tinglash, aks ettirish va hukm qilish vositalarini taqdim etish orqali o'zini anglashdir. Bu shubhalarni bartaraf etish bilan yakunlanadi va yetuk donolikka olib keladi yoki urf-odatlar bo'yicha qabul qilingan narsalarni tasdiqlaydi. Nyayada analogiya to'g'ri bilim olishning mustaqil vositasi sifatida qabul qilingan, chunki u hissiy bilish yoki xulosa orqali erishilib bo'lmaydigan to'g'ri bilimlarni keltirib chiqaradi. Analogiya (O'xshashlik) -biror narsani unga o'xshash boshqa bilim orqali bilish. Masalan, kimdir suv cho'chqasi(kapibar) katta qora sigirga o'xshaydi, deb aytsa. Kimdir suv cho'chqasi(kapibar) yashaydigan joyga sayohat qiladi va katta qora sigirga o'xshagan hayvonni ko'rib, suv

cho'chqasi(kapibar) bo'lishi kerak, degan xulosaga keladi. Nyayaning o'ziga xosligi unda har qanday bilimga yetish uchun shubxa(samsaya)ning zaruriyidir. Har qanday skeptik yondashuv insonning bilish darajasini yanada mustahkamlaydi. Shubhani xato, ya'ni soxta bilim bilan chalkashtirib yubormaslik kerak. Shubha (Nyayaga ko'ra)- bu to'liq bo'limgan bilim, bu qo'shimcha tekshirish uchun sabab bo'lib xizmat qiladi, shuning uchun bu juda ijobjiy va kerakli sifatdir. Soxta bilim -xato, qo'shimcha ma'lumot olish istagini yo'q qilish yoki hatto hayotiy alternativalarni jalg qilish orqali ongi chalg'itadigan noto'g'ri ishonchga olib kelishi mumkin. Xato "muvaqqiyatli harakatlarga olib kelmaydigan bilim" deb ta'riflanadi. Nyaya qoidalari va metodologiyasi shubha tug'ilganda qo'llanilishi kerak va shuning uchun haqiqatni tasdiqlash yoki aniqlashtirish uchun haqiqatni tekshirish kerak. Shubhaning 4 turi mavjud:

1. Umumiyl xususiyatlarni idrok etish yoki farqni idrok etmaslik
2. Masalan, zulmatda simyog'ochni odam bilan yoki o'ralgan arqonni ilon bilan adashtirish mumkin.
3. Guvohlarning ziddiyatli guvohliklari yoki bitta yoki boshqa mavzularda ikki yoki undan ortiq odamning fikrlari turlichaligi
4. Yolg'on hissiyat
5. Butaning barglar shovqinini eshitib, u yerda hayvon yoki odam bo'lishi mumkinligiga shubha bilan qarash
6. Sezgisizlikning xatoligi
7. Masalan biror narsani ta'riflangan sifatlarga ega bo'limgan holda yoki uni borligiga ishonish qobiliyatiga asoslangan holda, uning borligiga ishonmaslik.

Nyaya mantiq fanidir va bilimlar tabiatini va bilim ob'ektlarini falsafiy tekshirishning yagona ishonchli metodologiyasini ta'minlaydi. Bu o'zi haqida to'g'ri bilimga ega bo'lish va hayotning maqsadini aniqlash uchun vositadir. Bizning bilim va tajribamizni boshqalarga yetkazish va hayotimizning qolgan qismiga bo'lgan ta'sirini o'zimiz uchun tushuntirishning, shuningdek, ularning adolatsizligini dushman tanqididan himoya qilishning yagona usuli bu mantiq orqali amalga oshiriladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mavlyanov A.A. Mantiq: Ma'ruzalar kursi.-T.: O'zbekiston respublikasi IIV Akademiyasi, 2006.-135 b.
2. Ahmedova M, Yuldashev S, Shomatov O. Hind falsafasi.-T.: ToshDSHI, 2006
3. Radhakrishnan S. Philosophy of India.-D.: New Delhi-1956
4. Kodirov M., Po'latova D., Ahmedova M., Abduhalimov A. Sharq falsafasi-Tashkent 2013. 288b

O'UK: 9

XORAZMNING ILK O'RSTA ASRLAR DAVRI DAVLATCHILIGI TARIXINING ARXEOLOGIK VA TARIXSHUNOSLIK NUQTAI-NAZARDAN O'RGANILISHI

T.S. Matyaqubov, talaba, Urganch davlat universiteti, Urganch

Annotatsiya. Mazkur maqolada Xorazm davlatining ilk o'rta asrlar (milodiy IV-X asrlar) tarixiga oid arxeologik manbalarni tahlili bayon qilingan. Shuningdek bu davr Xorazm tarixiga oid chet el manbalining qiyosiy tahlili ham yoritilgan. Maqolada Xorazm davlatiga tegishli bo'lgan arxeologik obyektlarni tarixshunoslik nuqtai-nazardan o'rganilishi keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Jurjon (Urganch), Kat, Mizdahqon, Hazorasp, Xiva, To'qqal'a, Ayvonqal'a.

Аннотация. В данной статье представлен анализ археологических источников по истории Хорезмского государства первых средних веков (IV-X вв. до н. э.). Также был освещен сравнительный анализ зарубежного источника по истории Хорезма этого периода. В статье приведено изучение археологических объектов, относящихся к хорезмскому государству, с точки зрения историографии.

Ключевые слова: Джурджон (Урганч), Кэт, Миздахкон, Хазорасп, Хива, Туккала, Айвонкала.

Abstract. This article describes the analysis of archaeological sources on the history of the first Middle Ages(IV-X centuries BC) of the Khorezm state. A comparative analysis of foreign sources on the history of Khorezm of this period is also covered. The article discusses the study of archaeological objects belonging to the Khorezm state from the point of view of historiography.

Key words: Ayvonqal'a, Kat, Mizdahqon, Hazorasp, Xiva, Jurjon.